



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SENSOR TARBIYANI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti, PhD

Allaberdievna Mardona O'tkirkbek qizi

"Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" yo'nalishi
4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning hissiy idroki, tafakkuri hamda bilish faoliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Sensor tarbiya bolalarning atrof-muhitni ongli ravishda idrok etishi, predmet va hodisalarning asosiy xossalari – rang, shakl, hajm, faktura, hid va tovushlarni farqlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil sifatida asoslab beriladi. Tadqiqotda sensor tarbiyaning bolalarning nutqiy, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: sensor tarbiya, bilish faoliyati, hissiy idrok, nutqiy kompetensiya, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalar, rang, shakl, hajm, faktura, hid, tovush.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the development of children's sensory perception, thinking, and cognitive activity in preschool education as one of the key priorities of the educational process. Sensory education is substantiated as an essential factor in children's conscious understanding of the surrounding environment and in developing the ability to distinguish the fundamental properties of objects and phenomena, such as color, shape, size, texture, smell, and sound. The study highlights the role of sensory education in fostering preschool children's speech, emotional, and social competencies.

Key words: sensory education, cognitive activity, sensory perception, speech competence, emotional and social competencies, color, shape, size, texture, smell, sound.

Аннотация: В статье с научно-теоретической точки зрения рассматривается развитие сенсорного восприятия, мышления и познавательной деятельности детей в системе дошкольного образования как одно из приоритетных направлений образовательного процесса. Сенсорное воспитание обосновывается как важный фактор осознанного восприятия окружающей среды и формирования у детей способности различать основные свойства предметов и явлений – цвет, форму, размер, текстуру, запах и звук. Раскрывается значение сенсорного воспитания в развитии речевых, эмоциональных и социально-коммуникативных компетенций дошкольников.

Ключевые слова: сенсорное воспитание, познавательная деятельность, сенсорное восприятие, речевая компетенция, эмоционально-социальные компетенции, цвет, форма, размер, текстура, запах, звук.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning bilish, nutqiy, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari davlat siyosati darajasida e'tibor markazida turibdi. Maktabgacha ta'lim tizimida bolaning hissiy idroki, tafakkuri va bilish faoliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishidir. Sensor tarbiya bolaning atrof-muhitni anglashini, predmetlar xossalari (rang, shakl, hajm, faktura, hid, tovush) farqlash qobiliyatini shakllantiradi.

O'zbekistonda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun (2019 yil), "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" hamda Davlat maktabgacha ta'lim standartida sensor rivojlantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.



Shu jarayonda sensor tarbiyani tashkil etish muhim o'rin tutadi, chunki u bolaning atrof-muhitni anglash, predmetlarning xususiyatlarini idrok etish, tafakkurini shakllantirish va mustaqil fikrlash jarayonining poydevorini yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sensor rivojlanish bolaning tug'ma sezgi imkoniyatlariga asoslanadi, ammo bu imkoniyatlar tarbiya va mashq jarayonida faollashadi. Psixologlar (L.S.Vigotskiy, J.Piaje, A.V.Zaporozets, D.B.Elkonin) ta'kidlashlaricha, bolaning sezgi jarayonlari u faoliyatga kirishganda, ayniqsa o'yin faoliyati jarayonida rivojlanadi.

Aleksandra Platonova Usova (1898-1965) – maktabgacha yosh davrining o'yin, ta'lim, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni tashkil etish muammolari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning rahbarligida bolalar bog'chasi programmasi barcha metodikalar bo'yicha qo'llanmalar yaratildi. U tomonidan: "Obucheniye v detskom sadu" (M-1970 g), "Sensornoye vospitaniye doshkolnikov" (M 1963 g), "Russkoe narodnoe tvorchestvo v detskom sadu" (M-1972 g) kabi manbalar yaratilgan.

Nina Pavlovna Sakulina (1900-1976) – pedagogika fanlari doktori, tasviriy faoliyat bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan pedagog.

A.P.Usova, A.V.Zaporozets kabi olimlar bilan birgalikda maktabgacha yoshda sensor tarbiya tizimini ishlab chiqishda qatnashgan. U tomonidan: "Risovaniye v doshkolnom detstve" (1965 g) asari K.D.Ushinskiy mukofotiga sazovor bo'lgan. U asosiy diqqatini Maktabgacha ta'lim ishlariga, tarbiyachi, metodist, o'qituvchilarga metodik yordam berishga qaratdi.

Sensor tarbiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Mahalliy olimlardan M.Usmonxo'jayeva, S.Yusupova, N.G'ulomova, S.Ashurova tadqiqotlarida bolalarda sezgi faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan.

Xorijiy tajribada, xususan, Italiyada M.Montessori tizimida sensor rivojlanishga alohida e'tibor qaratiladi. Unga ko'ra, bolalar maxsus "sensor materiallar" yordamida mustaqil idrok va solishtirish faoliyatini bajaradilar. Xitoy va Yaponiya maktabgacha ta'lim dasturlarida esa "sensor o'yinlar" orqali sezgi faoliyati va tafakkur birgalikda rivojlantiriladi.

Shuningdek, zamonaviy xorijiy tajribalarda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalaridan foydalanish orqali bolalarning rang, shakl, tovush kabi sezgi elementlarini interfaol o'yinlar yordamida o'rganishi yo'lga qo'yilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi davr inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bola sezgi organlari orqali olamni biladi, predmetlarning rangi, shakli, hajmi, tovushi, hidi, fakturasi va boshqa belgilarini idrok etishni o'rganadi. Bolaning ilk yoshdagi rivojlanish jarayonida sensor tarbiya muhim o'rin tutadi. Sensor tarbiya – bu bolalarning hissiyot a'zolari orqali atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, predmetlarning rangi, shakli, hajmi, hidi, ta'mi, tuzilishi va boshqa xossalarni farqlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir.

Sensor tarbiya bolaning sezgi, idrok va tafakkur jarayonlarini rivojlantirish tizimi bo'lib, uning kognitiv va ijodiy rivojlanishiga asos yaratadi.

Sensor tarbiya bolaning sezgi organlari orqali atrof-muhitdagi predmet va hodisalarni idrok etish, ularni tahlil qilish, farqlash, solishtirish hamda umumlashtirishga o'rgatadigan jarayondir. U bola tafakkurining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Hissiy bilish maktabgacha yoshdagi bolalikda alohida ahamiyatga ega. Fikrlash va nutq yetakchi o'rin tutadigan mantiqiy bilish xisssiy tajribadan kelib chiqadi. Sensor rivojlanish har qanday amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli egallashning sharti hisoblanadi.

Tevarak atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini bevosita sezish orqali idrok qilish tashkil etadi. Bunday tasavvurning aniqligi, to'laligi sensor jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. "Sensor" so'zi lotincha "sensus" – "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi. Borliqni bilish sezgi, idrok qilishdan boshlanadi.

Inson ko'rish, sezish va hokozolar yordamida tevarak – atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida bilimga ega bo'ladi, faqat shular asosidagina unda xotira, tafakkur, hayol jarayonlari hosil bo'ladi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshdagi bolalar aqliy bilimining 10,9 qismini sezish orqali idrok etilgan taassurotlar tashkil etadi. Sezgi va idrok qanchalik boy bo'lsa, insonning tevarak-atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari shunchalik keng bo'ladi. Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning rivojlanish darajasi bilish faoliyatining muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

Sensor tarbiya pedagogika fanida bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi hisoblanadi.



Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davridir. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o'rinni egallaydi. Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi, idrokni takomillash-tirishga qaratilgan pedagogik ta'sir sistemasidir.

Bolaning rang, shakl, hajm, tovush, harorat, faktura, masofa va boshqa sezgi orqali aniqlanadigan belgilarni farqlay olish qobiliyati uning kognitiv rivojlanishining asosidir. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tizimida sensor tarbiya boshlang'ich ta'limga tayyorlov bosqichining ajralmas qismi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim didaktikasining rivojlanishida maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha olim A.P.Usova (1898-1965) tadqiqotlari, ta'lim prinsiplarining ahamiyati katta bo'ldi. U maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin, ta'lim, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni va xalq amaliy ijodiyoti masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi. U maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv jarayonlarning tashkiliy shakllari va metodlarini, bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishdagi, ularni maktabga tayyorlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berdi. Uning rahbarligida maktabgacha ta'lim tashkilot dasturi ishlab chiqilgan.

Tizimli bilimlar bolaning bilish faoliyatini rivojlanishini ta'minlaydi, ular asosida bola yaxlit obyektni idrok etishdan, uning xususiyatlarini anglashga erishadi. Bunda bolaning sensor ko'nikmalari rivojlanadi. Bolada o'zaro munosabatlarni anglab yetish (ijtimoiy-hissiy), bilish jarayoni nutqiy rivojlanish, qiyoslash, solishtirish oddiy tafakkur operatsiyalari, mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi.

Sensor tarbiya mazmuni quyidagilardan: ranglarni farqlash va nomlash, shakllarni tanish, hajm va fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish, tovushlarni ajrata olish, faktura va hiddan foydalanish orqali predmetni aniqlashdan iborat.

Bu jarayonlar bolalarda kuzatuvchanlik, tafakkur tezligi, diqqat va xotirani rivojlantiradi.

Sensor rivojlanishning asosiy bosqichlari:

1. **Emotsional-sezgi bosqichi (1–3 yosh)** – bola rang, tovush, fakturani faqat his qiladi, lekin nomlay olmaydi;
2. **Idrok bosqichi (3–5 yosh)** – bola sezgan predmetlarni solishtira boshlaydi;
3. **Tahliliy bosqich (5–6 yosh)** – bola predmetlarning belgilari bo'yicha tahlil va umumlashtirishni o'rganadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik nuqtayi nazardan, sensor rivojlanishni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- bolani faol sezish jarayoniga jalb etish;
- o'yin orqali tajriba orttirish;
- kuzatuv, solishtirish va xulosa chiqarishga o'rgatish;
- individual farqlarni hisobga olish.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida sensor tarbiyani rivojlantirishda turli pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ularning barchasi bolaning faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda sezgi organlari orqali bilish faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo'llash bolaning sezgi faoliyatini har tomonlama rivojlantiradi. Ayniqsa, o'yin va Montessori texnologiyalari bola yoshiga mos, tabiiy tarzda idrok jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. O'yin faoliyati – maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy vositasidir. Sensor o'yinlar bolaning sezgi organlarini faollashtiradi, atrof-muhitdagi belgilarni tahlil qilishga o'rgatadi.

Italiyalik pedagog M.Montessorining nazariyasida sensor rivojlanish alohida o'rin tutadi. Unga ko'ra, har bir bola o'z tabiiy qiziqishi asosida bilishga intiladi. Shuning uchun tarbiyachi unga tayyor muhit – “sensor burchak” yaratib beradi.

Sensor burchakning tarkibi:

- rangli kublar, silindrlar, piramidalar;
- turli fakturadagi matolar;
- qum, suv, urug', tosh kabi tabiiy materiallar;
- tovushli silindrlar va qo'ng'iroqchalar;
- harorat va og'irlikni sezishga mo'ljallangan buyumlar.



3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z hatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sensor tarbiyani rivojlantirishga oid an'anaviy mashg'ulotlar mavjud bo'lsa-da, ularning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zarur. Innovatsion yondashuvlar, interfaol o'yinlar, Montessori texnologiyasi, AKT vositalaridan foydalanish bolalarning sezgi faoliyatini faollashtiradi va o'quv jarayonini qiziqarli qiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida sensor rivojlantirish faqat klassik mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmaydi. Pedagoglar innovatsion texnologiyalardan foydalanib, bolalarning faol ishtirokini ta'minlashlari lozim.

Interaktiv usullar bolalarning faol fikrlashini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rag'batlantiradi.

Qo'llanadigan usullar:

1. **"Sensor burchagi"** – maxsus tashkil etilgan burchakda rangli, turli fakturali buyumlar joylashtiriladi. Bolalar ularni solishtiradi, tajriba qiladi.
2. **"Klaster" usuli** – bolalar bir predmetning turli xususiyatlarini (rang, shakl, hid) guruhlaydi.
3. **"Aqliy hujum"** – "Qanday buyum qizil va yumshoq bo'lishi mumkin?" kabi savollar orqali idrok faolligi oshiriladi.

O'yin sensor tarbiyaning asosiy shakli hisoblanadi. Bolalarni qiziqtirish va hissiy faolligini kuchaytirish uchun o'yinlar qo'llaniladi:

1. **"Ranglarni top"** – bolalar kartochkalar yordamida bir xil rangdagi buyumlarni ajratadi.
2. **"Qaysi shakl yo'qoldi?"** – predmetlardan biri olib tashlanadi, bolalar uni aniqlaydi.
3. **"Fakturani top"** – bola ko'zini yumgan holda materialning tuzilishini aytib beradi.

Mariya Montessori usuli sensor rivojlanishni maxsus didaktik materiallar orqali ta'minlaydi:

1. **"Rang palitralari"** – ranglar va tuslar bilan ishlash.
2. **"Silliq va g'adir-budur taxtalar"** – taktil hisni rivojlantiradi.
3. **"Qum jo'ynaklari"** – mayda motorika va hissiyotni faollashtiradi.

Bu usul bolani mustaqil fikrlash va izlanishga yo'naltiradi.

AKT asosidagi sensor o'yinlar bolalarda qiziqish va faollikni oshiradi. Masalan:

1. Interaktiv doskalarda rang va shakl bo'yicha topshiriqlar;
2. Multimediali sensor simulyatsiyalar (ovoz va rang reaksiyasi);
3. Ta'limiy multfilmlar va "sensor viktorinalar".

Sensor muhitini tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sensor muhit yaratish – rivojlantiruvchi muhitning asosiy qismi.

"Sensor burchagi"da turli rangdagi bloklar, figuralar, tabiiy materiallar bo'ladi.

Bolalar materiallarni erkin ushlab, solishtirish orqali hissiy tajriba orttiradi.

Har bir bola individual rivojlanish bosqichida bo'lgani uchun pedagog differensial yondashuvni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tajriba natijalariga ko'ra, sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkiloti amaliyotiga joriy etish tavsiya etiladi. Bu bolalarning hissiy, kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda katta samara beradi. Tajriba natijalariga ko'ra, sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkiloti amaliyotiga joriy etish tavsiya etiladi. Bu bolalarning hissiy, kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda katta samara beradi. Maktabgacha ta'lim tizimida sensor tarbiyani takomillashtirish bolalarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qobiliyati va tajribasini boyitishda asosiy omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini sensor rivojlantirish jarayoniga joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кондратьева Т. В. Сенсорная интеграция. – Самара, 2018.
2. Chorieva D. Improving students' readiness for pedagogical diagnostics of preschool children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
3. Chorieva D. Tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirishda pedagogik texnikaning roli // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1, № 24. – B. 101–103.
4. Chorieva D. A. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, – 385 b.
5. Chorieva D. Improving students' readiness for pedagogical diagnostics of preschool children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
6. Chorieva D. Diagnostics as a branch of psychological and pedagogical knowledge and type of research activity of a teacher // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
7. Chorieva D. Oila va maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ijtimoiy vazifalar // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1, № 32.
8. Chorieva D. Diagnostics as a branch of psychological and pedagogical knowledge and type of research activity of a teacher // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
9. Чориева Д. А. Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования // Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации. – 2019. – С. 86.
10. Чориева Д. А. Методы и приёмы работы с агрессивными детьми // Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2021. – С. 152–161.
11. Чориева Д. А. Педагогик-психологик диагностика фаолияти билан шуғулланувчи шахсга қўйиладиган талаблар // Образование и инновационные исследования: международный научно-методический журнал. – 2022. – № 9. – С. 99–102. – DOI: 10.53885/edinres.2022.9.09.014.
12. Chorieva D. A. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, – 385 b.
13. Sheraliyevna O. H. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8, № 4. – В. 70–75.
14. Sheraliyevna O. H. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik to'g'riligini shakllantirish // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10, № 1. – В. 179–185.
15. Maxmutazimova Y. The role of the kindergarten teacher in the formation of the child personality // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 546–548.
16. Maxmutazimova Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – T. 3, № 1.
17. Raxmatovna M. Y. The importance of developing technical creativity and engineering skills in preschool children. – 2025. – Shokh Library.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.